



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

7-jild
7-son
Iyul, 2026

July, 2026
Volume 7
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISHI VA AXBOROT TIZIMLARINING AMALDAGI HOLATI

Zohidov Jamshid Botirxonovich

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЭЛЕКТРОННОГО ДОКУМЕНТООБОРОТА И ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ

Зохидов Джамишд Батирхонович

CURRENT STATE OF ELECTRONIC DOCUMENT MANAGEMENT AND INFORMATION SYSTEMS IN SERVICE ENTERPRISES

Zohidov Jamshid Botirkhonovich

Received: July 3, 2026 Revised: July 6, 2026 Accepted: July 9, 2026 Published: August 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi tizimlari va axborot tizimlarining amaldagi holati kompleks tahlil qilingan. Elektron hujjat aylanishining korxona boshqaruvi samaradorligini oshirishdagi o'rni, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirishdagi ahamiyati hamda axborot almashinuvining tezkorligi va ishonchliligini ta'minlashdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarini joriy etish hamda ulardan foydalanish darajasi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: elektron hujjat aylanishi, axborot tizimlari, xizmat ko'rsatish korxonalari, raqamli transformatsiya, korxona boshqaruvi, raqamlashtirish, boshqaruv samaradorligi, axborot texnologiyalari, elektron boshqaruv, biznes jarayonlari.

Аннотация. В данной статье проведён комплексный анализ современного состояния систем электронного документооборота и информационных систем на предприятиях сферы услуг. Раскрыта роль электронного документооборота в повышении эффективности управления предприятием, цифровизации управленческих процессов, а также обеспечении оперативности и надёжности информационного обмена. Исследован уровень внедрения и использования систем электронного документооборота и информационных систем на предприятиях сферы услуг, выявлены существующие проблемы и определены приоритетные направления их решения. Полученные результаты могут быть использованы при разработке научно-практических рекомендаций по совершенствованию цифрового управления, повышению качества управленческих решений и ускорению процессов цифровой трансформации предприятий сферы услуг.

Ключевые слова: электронный документооборот, информационные системы, предприятия сферы услуг, цифровая трансформация, управление предприятием, цифровизация, эффективность управления, информационные технологии, электронное управление, бизнес-процессы.

Abstract. This article presents a comprehensive analysis of the current state of electronic document management systems and information systems in service enterprises. The study examines the role of electronic document management in improving enterprise management efficiency, supporting the digitalization of management processes, and ensuring the speed and reliability of information exchange. It also evaluates the level of implementation and utilization of electronic document management and information systems in service enterprises, identifies existing challenges, and determines priority directions for their improvement. The findings contribute to the development of scientific and practical recommendations aimed at enhancing the effective use of modern information technologies, improving managerial decision-making, and accelerating the digital transformation of service enterprises.



Keywords: electronic document management, information systems, service enterprises, digital transformation, enterprise management, digitalization, management efficiency, information technologies, e-management, business processes.

■ KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda axborot almashinuvining samaradorligini oshirishga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytirmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligi nafaqat ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish salohiyatiga, balki axborot resurslarini samarali boshqarish, elektron hujjat aylanishi tizimlaridan foydalanish va zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Shu bois elektron hujjat aylanishi korxonalarda boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, hujjatlar bilan ishlash vaqtini qisqartirish, inson omili ta'sirini kamaytirish hamda boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, unda axborot oqimlarining hajmi va tezligi yildan yilga ortib bormoqda. Mazkur jarayon xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarini keng joriy etishni, boshqaruvning raqamli mexanizmlarini takomillashtirishni hamda ma'lumotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Elektron hujjat aylanishi tizimlari hujjatlarni yaratish, ro'yxatga olish, saqlash, izlash, uzatish va arxivlash jarayonlarini yagona axborot muhitida tashkil etish orqali boshqaruv xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida elektron hukumat tizimi, elektron hujjat almashinuvi, raqamli xizmatlar hamda korporativ axborot tizimlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada xizmat ko'rsatish korxonalarida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'lami kengayib, elektron hujjat aylanishi tizimlarini joriy etish bo'yicha amaliy ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu jarayonda axborot tizimlarining integratsiyasi yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi, texnik infratuzilmaning nomutanosib rivojlanganligi, axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar, malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda ayrim korxonalarda an'anaviy hujjat yuritish usullarining saqlanib qolayotgani elektron hujjat aylanishi tizimlarining samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarining amaldagi holatini chuqur tahlil qilish ularning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Ayniqsa, korxonalarda yagona

axborot makonini shakllantirish, biznes jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish, elektron hujjatlar bilan ishlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning axborot bazasini mustahkamlash xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarining amaldagi holatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning boshqaruv jarayonlaridagi o'rni va ahamiyatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda elektron hujjat aylanishi tizimlarini takomillashtirish va axborot tizimlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirishdan iborat.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarini korxona boshqaruvida qo'llash masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda elektron hujjat aylanishi boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, hujjatlar bilan ishlash tezkorligini oshirish, axborot almashinuvini optimallashtirish hamda boshqaruv xarajatlarini kamaytirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, axborot tizimlarining korxona faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda korxonalarda elektron hujjat aylanishi tizimlarini raqamli transformatsiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish, ularni korporativ axborot tizimlari bilan integratsiyalash hamda sun'iy intellekt va bulutli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish, elektron boshqaruv tizimlarini rivojlantirish hamda xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarining amaldagi holatini kompleks baholash, ularning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini aniqlash hamda mavjud muammolarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish zaruratini yuzaga keltiradi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarining amaldagi holatini baholash hamda ularning boshqaruv jarayonlariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan umumilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, qiyosiy va mantiqiy tahlil, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, kuzatish hamda



umumlashtirish usullari qo'llanildi. Ushbu metodlar elektron hujjat aylanishi tizimlarining joriy etilish darajasi, axborot tizimlaridan foydalanish samaradorligi va mavjud muammolarni kompleks baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning axborot bazasini elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlari bo'yicha mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat statistika ma'lumotlari, raqamli iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar hamda tahliliy materiallar tashkil etdi. Olingan natijalar ilmiy mantiq asosida tizimlashtirilib, xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarining joriy etilishi boshqaruv faoliyatini raqamlashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy xizmat ko'rsatish korxonalari o'z faoliyatida katta hajmdagi axborot oqimlarini shakllantiradi. Ushbu axborotlar mijozlar bilan ishlash, shartnomalar tuzish, moliyaviy hisobotlarni yuritish, kadrlar boshqaruvi, xizmatlar sifatini nazorat qilish hamda ichki boshqaruv jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. An'anaviy hujjat yuritish tizimida mazkur jarayonlar ko'p vaqt talab qiladi, ortiqcha qog'oz hujjatlar aylanishiga sabab bo'ladi hamda inson omili ta'sirida xatolarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Elektron hujjat aylanishi tizimlari esa ushbu kamchiliklarni bartaraf etish orqali boshqaruv jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron hujjat aylanishi tizimlaridan foydalanayotgan xizmat ko'rsatish korxonalarida hujjatlarni tayyorlash, kelishish, tasdiqlash va ijroga yuborish jarayonlari ancha tezlashgan. Hujjatlarning elektron shaklda saqlanishi ularni izlash va ulardan foydalanishni yengillashtirib, arxivlashtirish xarajatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, hujjatlarning harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati rahbarlarga ijro intizomini samarali nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish uchun zarur axborotlarni o'z vaqtida olish imkonini beradi.

Korxonalarda joriy etilgan axborot tizimlari mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mijozlar bazasining yagona elektron platformada yuritilishi xizmat ko'rsatish jarayonini individuallashtirish, murojaatlarni tezkor ko'rib chiqish hamda mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish imkonini bermoqda. CRM, ERP va boshqa korporativ axborot tizimlarining elektron hujjat aylanishi bilan integratsiyalashuvi biznes jarayonlarini yagona axborot muhitida boshqarishga xizmat qilmoqda. Natijada takroriy amallar soni kamayib, ma'lumotlarning takror kiritilishiga ehtiyoj qisqaradi hamda turli bo'limlar o'rtasida axborot almashinuvi tezlashadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi tizimlarini joriy etish darajasi korxonaning faoliyat turi,

moliyaviy imkoniyatlari, texnik infratuzilmasi va raqamli kompetensiyasiga bevosita bog'liq. Yirik korxonalarda zamonaviy axborot tizimlari keng qo'llanilayotgan bo'lsa, kichik va o'rta xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishidan foydalanish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Buning asosiy sabablari dasturiy ta'minotni joriy etish xarajatlarining yuqoriligi, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali IT mutaxassislarining yetishmasligi hamda ayrim rahbarlarning raqamli boshqaruv tizimlariga nisbatan ehtiyotkor munosabatidir.

Elektron hujjat aylanishi tizimlarini amaliyotga tatbiq etishda axborot xavfsizligi masalalari ham muhim o'rin tutadi. Hujjatlarning maxfiyligi, yaxlitligi va ishonchligini ta'minlash uchun elektron raqamli imzo, foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish, ma'lumotlarni zaxiralash va shifrlash texnologiyalaridan foydalanish zarur. Mazkur vositalar hujjatlar bilan noqonuniy ishlashning oldini olish, ruxsatsiz kirishni cheklash hamda axborot resurslarini ishonchli himoya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi siyosatining yetarli darajada shakllanmaganligi ayrim korxonalarda elektron hujjat aylanishi tizimlarining samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot davomida xizmat ko'rsatish korxonalarida axborot tizimlaridan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilindi. Ular qatoriga zamonaviy texnik vositalarning mavjudligi, yuqori tezlikdagi internet tarmog'i, malakali kadrlar, rahbariyatning raqamlashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlashi, axborot tizimlarining o'zaro integratsiyalashuvi hamda xodimlarning raqamli savodxonligi kiradi. Mazkur omillar uyg'un holda shakllangandagina elektron hujjat aylanishi tizimlaridan yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Tahlillar shuningdek, elektron hujjat aylanishi tizimlarining iqtisodiy samaradorligini ham tasdiqlaydi. Xususan, qog'oz hujjatlar hajmining qisqarishi, pochta va transport xarajatlarining kamayishi, hujjatlarni qayta ishlash vaqtining qisqarishi, mehnat unumdorligining oshishi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish muddatining tezlashishi korxona faoliyatining umumiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, hujjatlar aylanishining shaffofligi oshishi korrupsion xavflarni kamaytirishga, ijro intizomini kuchaytirishga va ichki nazorat tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish korxonalarida sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish (Big Data) va mobil ilovalar bilan integratsiyalashgan elektron hujjat aylanishi tizimlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bermoqda. Bunday tizimlar hujjatlarni avtomatik tasniflash, ularning ijro muddatlarini nazorat qilish, analitik hisobotlarni shakllantirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli transformatsiya darajasi ortib, ularning bozor sharoitidagi raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarining amaldagi holatini baholash ko'rsatkichlari

Baholash mezonlari	Amaldagi holat	Mavjud muammolar	Takomillashtirish yo'nalishlari
Elektron hujjat aylanishi tizimining joriy etilishi	Yirik korxonalarda keng joriy etilgan, ayrim kichik korxonalarda qisman qo'llaniladi	Joriy etish xarajatlarining yuqoriligi, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi	Elektron hujjat aylanishi tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash
Axborot tizimlarining integratsiyasi	Alohida dasturlar mavjud, biroq o'zaro integratsiya darajasi past	Ma'lumotlarning takror kiritilishi, yagona ma'lumotlar bazasining yo'qligi	ERP, CRM va EDMS tizimlarini yagona platformaga integratsiyalash
Hujjatlarni qayta ishlash tezligi	Elektron shaklda tezkor, qog'oz hujjatlarda vaqt sarfi yuqori	Qo'lda ishlash jarayonlarining saqlanib qolishi	Avtomatlashtirilgan ish jarayonlarini kengaytirish
Axborot xavfsizligi	Elektron raqamli imzo va autentifikatsiya vositalari qo'llanilmoqda	Kiberxavfsizlik siyosatining yetarli darajada shakllanmaganligi	Ma'lumotlarni shifrlash, zaxiralash va axborot xavfsizligi standartlarini joriy etish
Xodimlarning raqamli kompetensiyasi	Mutaxassislar malakasi korxonalar kesimida farqlanadi	AKT bo'yicha bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi	Doimiy malaka oshirish kurslari va treninglarni tashkil etish
Boshqaruv qarorlarini qabul qilish	Elektron axborot tizimlari tahliliy ma'lumotlarni tezkor taqdim etadi	Ayrim ma'lumotlarning to'liq raqamlashtirilmaganligi	Analitik platformalar va qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni rivojlantirish
Xizmat ko'rsatish sifati	Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va tezkorligi oshmoqda	Mijozlar ma'lumotlarini boshqarishda ayrim kamchiliklar mavjud	CRM tizimlarini takomillashtirish va sun'iy intellekt elementlarini joriy etish
Iqtisodiy samaradorlik	Operatsion xarajalar kamayadi, mehnat unumdorligi ortadi	Dastlabki investitsiya xarajatlari yuqori	Raqamli texnologiyalarga investitsiyalarni ko'paytirish va iqtisodiy samaradorlik monitoringini yo'lga qo'yish

O'tkazilgan tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlaridan samarali foydalanish boshqaruvning tezkorligi, shaffofligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun korxonalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, elektron hujjat aylanishi tizimlarini yagona korporativ platformalar bilan integratsiyalash, axborot xavfsizligini kuchaytirish, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirish hamda innovatsion raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish korxonalarining boshqaruv samaradorligini yanada oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va raqamli iqtisodiyot talablariga mos barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda

muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida elektron hujjat aylanishi tizimlarining joriy etilishi hujjatlar bilan ishlash jarayonini tezlashtirishi, axborot almashinuvining uzluksizligini ta'minlashi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilashi hamda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shu bilan birga, axborot tizimlarining korxona faoliyatiga integratsiyalashuvi biznes jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirish uchun zarur shartlardan biri ekanligi asoslandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarini joriy etish darajasi bir xil emas. Ayrim korxonalarda zamonaviy raqamli texnologiyalar muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan bo'lsa, boshqalarida texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiyaning sustligi, axborot xavfsizligini ta'minlashdagi kamchiliklar hamda malakali mutaxassislar yetishmasligi ushbu tizimlardan samarali

¹⁷ Muallif tomonidan elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlarining xizmat ko'rsatish korxonalarida qo'llanilishi bo'yicha ilmiy adabiyotlar hamda tahliliy ma'lumotlar asosida tuzilgan.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli transformatsiyasini jadallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida xizmat ko'rsatish korxonalarida elektron hujjat aylanishi tizimlarini zamonaviy korporativ axborot tizimlari bilan integratsiyalash, elektron raqamli imzo va axborot xavfsizligi mexanizmlaridan keng foydalanish, bulutli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt elementlarini boshqaruv jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslandi. Shuningdek, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini oshirish va boshqaruv jarayonlarini to'liq raqamlashtirish korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlaridan samarali foydalanish xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruvning tezkorligi, shaffofligi va ishonchligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda raqamli iqtisodiyot talablariga mos innovatsion boshqaruv modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, elektron hujjat aylanishi tizimlarini rivojlantirish hamda axborot tizimlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan keyingi ilmiy izlanishlar va amaliy faoliyat uchun muhim ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1]. Abdullayev Ilyos Sultanovich, & Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich. (2023). Necessity and importance of regional policy in sustainable development of regions of the country. International journal of research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 17(04), 16–21.
- [2]. Ruzmetov B., Baxtiyarov Sh. Mintaqani barqaror rivojlanish maqsadlari asosida kompleks rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari. "O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari" Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani, - Buxoro: BuxDU, 14-15 aprel. 2025 yil
- [3]. Xudayberganov D.T. Оценка лояльности потребителей бренду и ее влияние на прибыль бизнеса. (2026). Журнал «Маркетинг», 1. <https://marketingjournal.uz/index.php/mj/article/view/743>

[4]. Xudayberganov D.T., Achilova F.K. Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish yo'nalishlari. // "Scienceproblems.uz" - Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari elektron jurnali, Samarqand, 3-son, 6-jild, mart, 2026-yil, 57-67 b.

[5]. Dilshod Hudayberganov Tuxtabaevich, Sherzod Saloxitdinov Farxodovich, Furuza Achilova Kurbanovna, Botir Mukhtarov Abdusattarovich, Sojida Fayzullayeva Farhodovna, Sunajon Yuldasheva Zokir kizi. Possibilities of assessing cluster potential in regions. // "Biospectrum 2025" International Conference on Biotechnology and Biological Sciences, University of Engineering and Management, Kolkata in collaboration with University of Iasi, Romania, 10th to 12th December 2025.

[6]. Achilova F.K. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini takomillashtirish strategiyasi va dasturlari. // "O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi" jurnali, Toshkent, 4-son, 2026-yil, 57-61 b.

[7]. Achilova F.K. Mintaqaviy xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirishda boshqaruvning samarali mexanizmlari. // "Agro Ilm" jurnali, Toshkent, 1[121]-son, fevral, 2026-yil, 175-176 b.

[8]. Achilova F.K. Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishni tartibga solish tizimi. // "Muhandislik & iqtisodiyot" ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal, Toshkent, 2-son, fevral, 2026-yil, 221-224 b.

[9]. Achilova F.K. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirishning xorij tajribasi. // "Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi" ilmiy jurnali, Toshkent, 6(01)-son, yanvar, 2026-yil, 139-149 b.

[10]. Laudon, K. C.; Laudon, J. P. Management Information Systems: Managing the Digital Firm. 17th ed. Harlow: Pearson, 2022. – 704 p.

[11]. Davenport, T. H. Process Innovation: Reengineering Work through Information Technology. Boston: Harvard Business School Press, 1993. – 352 p.

[12]. Porter, M. E.; Heppelmann, J. E.. Harvard Business Review. 2014. Vol. 92. No. 11. P. 64–88.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Zohidov Jamshid Botirxonovich, Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi / Зоҳидов Джамшид Батирхонович, Независимый исследователь Каршинского государственного университета / Zohidov Jamshid Botirkhonovich, Independent researcher at Karshi State University

E-mail: achilovaf@gmail.com

ORCID: 0000-0002-8358-5416



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz